



Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги



Ўзбекистон Республикаси
мактабгача таълим вазирлиги

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA ЎRTA
MAHSUS TAЪLIM VAZIRLIGI
BUKHORO DAVLAT UNIVERSITETI

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА
КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ
ЁНДАШУВЛАР: ИСТИҚБОЛАР,
МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР**
(Республика илмий-амалий анжумани)



БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА
КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВЛАР :
ИСТИҚБОЛЛАР, МУАММОЛАР ВА
ЕЧИМЛАР**

*(Республика масофавий илмий-амалий
анжумани)*

БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь

“Мақтабгача таълимда компетенциявий ёндашувлар:
истикболлар, муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги
Республика илмий-амалий анжумани илмий моқола ва
тезислар тўплами (2020-йил, 3-ноябрь). Бухоро: 2020 йил.

Бош муҳаррир:

Педагогика фанлари номзоди, доцент Г.А.Камилова

Тақризчилар:

Авезов С.С. – ф.ф.н, доц.

Тўхсанов Қ.Р. – ф.ф.н, доц.

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

М.Б.Шарипова – Мақтабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Н.Н.Ҳамроева - Мақтабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Ушбу Республика масофавий илмий-амалий анжуманининг илмий мақола ва тезислари тўпламида Ўзбекистон Республикасининг “Мақтабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни, “Ўзбекистон Республикасида илк ва мақтабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари”, “Илк қадам” Давлат ўқув дастури, шунингдек, мақтабгача таълим тизимини ривожлантириш борасидаги ислохотларда белгиланган, соҳада амалга оширилаётган ишларни таҳлил қилиш ва бу борадаги тақлифларни ишлаб чиқиш бўйича илмий, амалий ва услубий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Мазкур тўпламга киритилган мақолалар ва тезисларнинг мазмуни, статистик маълумотлар ҳамда билдирилган фикр ва мулоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.

Бухоро - 2020 йил, 3-ноябрь

**MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA
TARBIYALANUVCHILARNI AQLIY TARBIYALASHDA
TURLI XIL O'YINLARNING AHAMIYATI**

*Jabborova Saodat, Buxoro davlat universiteti maktabgacha
ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

Karimova Ozoda Nayim

BDU 14-4MT-20 guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning mazmuni va mohiyati, bolalarni aqliy tarbiyalashda didaktik o'yinlarning ahamiyati va ularni tanlash shartlari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, aqliy tarbiya va ta'lim, didaktik o'yinlar, tarbiyachi.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание и сущность умственного воспитания дошкольников, значение дидактических игр в умственном воспитании детей и условия их отбора.

Ключевые слова: дошкольники, умственное воспитание, дидактические игры, воспитатель.

Annotation: This article discusses the content and essence of mental education of preschool children, the importance of didactic games in the mental education of children and the conditions of their selection.

Keywords: preschool children, mental education, didactic games, educator.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasi o'yin faoliyati orqali amalga oshadi. Kattalar tomonidan tashkil etiladigan maxsus o'yinlar bolalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan turfa xil bilim, fikrlash jarayonlari, aqliy harakatlar bilan yakunlanadi. Bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida didaktik o'yinlar kattalar tomonidan yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag'ishlaydi. Turli yosh guruhlari uchun turlicha elementlarga ega bo'lgan o'yinlar tashkil etiladi. Yosh guruhlari o'sib borgani sari o'yin qoidalari ham murakkablashtirib boriladi. Masalan, o'rta guruh uchun mo'ljallangan "Asalariga yordam ber" nomli didaktik o'yinidan foydalanish mumkin. Bu o'yinda bolalar asalarining turli yo'llar orqali gulga qanday yetib borishi mumkinligini aniqlaydilar va

shu orqali asalariga yordam beradilar. Ushbu didaktik o'yinimiz orqali bolalarda idrok, xayol, tasavvur kabi bilish jarayonlarini hamda barmoqlar mayda motorikasini rivojlantirishga yordam beradi. Bu labirintga o'xshab ketadi va bolalar qaysi yo'l bilan yurilsa nishonga yetib borish kerakligini aniqlashlari lozim bo'ladi. Bu orqali esa ularda chamalash kabi sifatlari shakllanib boradi. O'yin oxirida bola gulga —yetib borib, asalariga yordam berganda esa tarbiyachi tomonidan bola rag'batlantirib boriladi. Aytib o'tganimdek, yosh guruhlariga qarab o'yin elementlari murakkablashib boradi. Bu o'yinda ikkita element aks ettirilgan bo'lib, keyinchalik bu elementlarni ko'paytirib borish maqsadga muvofiqdir. Masalan, katta guruh uchun mo'ljallangan - Ortiqchasini top nomli video o'yini esa o'yin elementlari ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu didaktik o'yindan asosan, olingan bilimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Buning afzalligi shundaki, ushbu o'yinimizni bolalar jamoasi bilan ham o'tkazsa bo'ladi. Bu o'yin to'rt bosqichdan iborat: -mevalar ichidan ortiqchasini top; -jihazlar ichidan ortiqchasini top; O'yinning natijasini ikki nuqtayi nazardan: bolalar va tarbiyachi nuqtayi nazaridan baholash mumkin. Agar o'yin natijasini bolalar nuqtayi nazaridan baholaganda, unda bu o'yindan bolalar qanday ma'naviy va axloqiy ozuqa olganlarini hisobga olish lozim. Didaktik vazifalarni bajarish bolalardan ma'lum darajada zo'r berishni, ya'ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi. Tarbiyachi didaktik o'yin davomida bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu narsalarning shakli, rangi katta – kichikligi, fazoda tutgan o'rni haqida ham tanishtiradi. Didaktik o'yinni bolalarning bergan takliflari va tashabbuskorliklariga qarab, o'yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish mumkin, ya'ni yuqorida taqdim etilgan o'yinda ham bolalar topishi kerak bo'lgan narsalarga tarbiyachi tomonidan topishmoqlar bilan murojaat qilsa ham bo'ladi. Yoki bolalar savolga mos javobni topganlarida ham ushbu narsaga atalgan she'rlardan bilsalar va uni aytib bersalar o'yin jarayoni yana ham qiziqarli bo'ladi. Didaktik o'yinning natijasini tarbiyachi muhokama qilganda quyidagilarga e'tibor berishi lozim: qo'yilgan maqsadga erishildimi, belgilangan harakat bajarildimi, shu ko'zlangan nuqtayi nazardan ma'lum natijalarga erishildimi yoki yo'qmi.

O'yin natijasi didaktik o'yinning muayyan natijasi hisoblanadi, natija esa o'yinning finali hisoblanadi. Masalan, yuqoridagi ikkita o'yinda ham bolalar kerakli javoblarni topish, o'yinda berilgan topshiriqlarni bajarish, o'z bilimlarini namoyon qilish kabilar o'yinning natijasi bo'lib, ularni bolalar erishilgan muvaffaqiyat deb tushunadilar. Didaktik o'yinlarning o'tkaziladigan joyi ham ko'p jihatdan muhim ahamiyatga egadir. O'yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, o'rmonda, dalada va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yinning ta'sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi. O'yin metodi didaktik vazifani tushunarliroq, ta'limni qiziqarli qilib tashkil etishga yordam beradi. O'yin metodi bolalarning ixtiyoriy diqqatlarini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o'yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi. Kichkintoylar o'ynaydigan sujetli o'yinlarning asosiy mazmuni - buyumlar bilan bajariladigan xilma-xil harakatlari tasvirlashdir. Bunday o'yinlar jarayonida bolalar buyumlardan foydalanish, ular bilan amallar bajarishning ijtimoiy mustahkamlangan usullarini o'zlashtirib oladilar. Bunda harakatlarni umumlashtirish va bolaning ongida ularni aniq bir buyumdan ajratish jarayoni ro'y beradi. Bolaning rivojlanishiga qarab, ularning ijodiy o'yinlari tobora rejali xususiyat kasb etadi: bolalar o'yinning mazmuni haqida, o'yinchoqlardan foydalanish va h.k.lar to'g'risida kelishib oladilar. Shu yo'l bilan o'yin davomida bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan tafakkurning rejalashtiruvchi vazifasi tarkib topadi. Bolaning aqliy tarbiyasida ijodiy o'yinlar bilan bir qatorda didaktik o'yinlar ham katta o'rin egallaydi. Bunday o'yinlar tayyor mazmunga va aniq qoidalarga ega. Juda ko'p xalq o'yinlari avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Pedagoglar tomonidan ham ko'pgina o'yinlar ishlab chiqilgan. Didaktik o'yinlar deb nomlanishining o'zi ham bu o'yinlarning maqsadi bolalarni aqliy rivojlantirishdan iboratligini bildiradi. Binobarin, ular aqliy tarbiya vositasi deb qaraladi.

Shunday qilib, didaktik o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy ta'ribya berish vositasi bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. bunday o'yinlarning o'yin faoliyati sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlari o'yin tarzida bo'ladi. ko'pincha didaktik o'yinlar bolalarning bilimiga biror bir yangilik

kiritmaydi, ammo ularning o'z bilimlarini yangi sharoitda ishlata bilishga o'rgatadi yoki kichkintoylardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini namoyon qilishga jalb etadi. Bu esa bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi O'RQ-595, 16.12.2019.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. T.: "Fan va texnologiya", 2012.